

**XX ASRNING 80-90 YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY,
IJTIMOIY VOQEA VA HODISALAR**

Tog'aymurodova Feruza Muqadirovna

togaymurodovaferuza417@gmail.com

Chirchiq shaxar 24- sonli tarix o'qituvchisi

Dolzarbli; Bu maqola, XX asrning 80-90 yillarida O'zbekistonda ro'y beruvchi siyosiy va ijtimoiy voqealar va hodisalarni o'rganishga bag'ishlangan. Bu davrda O'zbekiston tarixida katta o'zgarishlar ro'y berdi, bu esa mamlakatning bugungi kungi va kelajagi uchun muhim ta'sir qildi. Maqola, ushbu voqealar va hodisalar orasidagi bog'liqlikni, ularning mamlakat va uning fuqarolarining hayotiga qanday ta'sir qilganligini tahlil qiladi. Ushbu maqola, tarixchi, siyosatshunoslar, ijtimoiy fanlar mutaxassislariga va umumiy ravnaq uchun qiziqarli bo'lishi mumkin

Sovet tuzimi davrida soxta kommunistik mafkuraga va ma'muriy buyruq boylikka asoslangan samarasiz ijtimoiy - iqtisodiy siyosat 80-yillarning o'rtalariga kelib, O'zbekiston iqtisodiyotida inqiroz holatlarining kuchayishiga olib keldi. Bu holat respublika aholisi turmush tarzini yanada pasaytirib uni og'ir muammolar iskanjasiga solib qo'ydi . [1:266]

SSSRdagi "qayta qurish" jarayoni avval boshidanoq siyosiy sohani qamrab oldi. Iqtisodiy islohatlar esa unga bo'y sunuvchan ahamiyat kasb etdi . Oradan ko'p o'tmay , jaddalladshib borayotgan siyosiy jarayonlar bilan sust rivojlanayotgan iqtisodiyot o'rtaida katta farq ko'zga tashlana boshladi. Bu paytda SSSRning tarkibiy qismi bo'lган O'zbekiston SSR ham qayta qurishga girdobiga tortildi, uniq qonuniyatlsrga amal qildi. [2:570] Qayta qurish siyosati markaz tomonidan 1985-1990-yillarda amalga oshirilgan siyosat KPSS MKning Aprel (1985) prenumi sovet jamiyat "qayta qurish ", bu jamiyat hayotining barcha sohalarini "chuqur isloh qilish " yo'lini e'lon qildi. Bunda avvalo , ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, oshkoraliq, iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga qaror qilindi . Biroq ilmiy jihatdan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

pxuta asoslanmagan qayta qurish "konsepsiysi "avval boshdanoq mag'lubiyatga mahkum edi. Shuning uchun ham kutulgan natijani bermadi. [3:264]

Qayta qurishning birinchi bosqichi(1985-1986-yillar) asosan ma'muriy - tashkiliy tadbirlarning ananaviy usullarda olib borilishi bilan xarakterlanadi. Qayta qurishning dastlabki davrlarda asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish , fan texnika taraqqiyotini jadallashtirishga qaratildi shuning uchun ham 1986-yil 1-mart kuni KPSS XXVII s'ezdining KPSS Markaziy Komiteti siyosiy ma'ruzasi yuzasidan qabul qilingan rezolyutsiyada fan texnika taraqqiyotini jadallashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan edi . Ammo , bunday jarayonni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirmasdan amlga oshirish mumkun emasligi. Tezda ayon bo'ldi . Shuning uchun 1986-yilda qayta qurish va ijtimoiy munosabatlar masalasiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'lindi . Bunday siyosatning markazida esa jamiyatni demokratlashtirish , ma'muriy buyruqbozlik va byurokratizmga qonunsizlikka qarshi kurashadir edi. Statistik ko'rsatkichlarda qayd etilishicha , 1986-yildan boshlab mamlakat siyosiy ahvoli battar yomonlasha boshladи, 1987-yil yanvardan ishlab chiqarish suratlari keskin pasayib bordi. Iqtisodiyotda inqirozli holat yuzaga keldi. Qayta qurishning birinchi bosqichi mag'lubiyatga uchradi.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987-1990-yillar)

Jamiatning barcha jabhalarini kampleks tarzda isloh qilishni kun tartibiga qo'ydi. Bunday vazifa komunistik mafkura tomonidan 1987-yil yanvarda yanada aniqlashtirildi Moskva shahrida 1987-yil 27-28-yanvarda bo'lib o'tgan KPSS MK Plenumida KPSS MKning bosh sekretari M.S.Gorbachyov "Qayta qurish va partianing kadrlar siyosati to'g'risida " ma'ruza qildi. Biroq siyosiy tuzumni isloh qilish va demokratlashtirish , keng xalq ommasining siyosiy va tarixiy jarayonnarda ishtirok etishi Markaz uchun kutilmagan oqibatlarga olib kelishi natijasida Moskva tomonidan siyosiy va iqtisodiy islohatlar boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi. Oqibatda 1990-yil nafaqat qayta qurishning 2-bosqichi , balki SSSR axolisi balki butun dunyo umid ko'zi bilan qarayotgan qayta qurish siyosati butunlay mag'lubiyatga uchradi . Bu holat ham SSSR inqirozini tezlashtirdi va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

uning parchalanishiga olib keldi .Qayta qurish siyosatining mag'lubiyatga uchrashini 3 sabab bilan izohlanadi:

Birinchidan , qayta qurishning aniq ,izchil,ilmiy jihatdan puhta ishlab chiqilgan strategiya va taktikasi hamda yagona dasturi yo‘q edi.

Ikkinchidan , kommunistik partiya raxbarlari qayta qurish g‘alabasidan manfaatdor emas edi . Ular har qanday demokratiya va oshkoraliq totalitat tuzumning kushandasini ekanligini yaxshi bilishardi. Uchinchidan , M.S.Gorbochayov g‘oyasi asosida qayta qurishni amalga oshirish mumkun emasdi. Sotsializmga hos sinfiy munosabatlari , davlat mulkchiligi milliy va ijtimoiy sohadagi siyosat yakkapartiyaviy raxbarlik , kommunistik mafkura , mustabid boshqaruv usuli hech qachon demokratiya bilan kelisha olmagan edi . [4:571,572,]

„ Paxta ishi ‘’ - 1983-yilda Markaz tomonidan ma’muriy buyruqbozlik tizimini mustaxkamlashga qaratilgan va ataylab o’ylab topilgan uydurma. 1983-yildan SSSR Bosh prokrori topshirig’iga ko’ra ., SSSR prokuraturasining alohida muhim ishlar bo'yicha tergovchisi T.Gdlyan boshchiligidagi mamlakatning turli mintaqalaridan to’plangan 200 kishidan iborat tergov guruhi tuzilib , O’zbekiston yuborilgan. Tergov guruhiga katta vakolat va imtiyozlar berilgan . Ular soxta ayiblovlari bilan qonunsizlik yo’liga o’tib, tergov jarayonlarida tuhmat, ig’volar uyushtirish , faktlarni soxtalashtirish , kishilarni soxta ma’lumot berishga majbur etish , o’zlariga yoqmagan kishilardan o’ch olish vositasi sifatida foydalanishgan.

Shu asosda O’zbekistonda paxtani terish va qayta ishlashda „ o’g’irlik ” , „ qo’shib yozish” larda ayblanib , Gdlyan va Ivanov boshchiligidagi guruh tomonidan 1989- yilgacha 5 mingdan ko’proq partiya va sovet raxbarlari , tashlilot raxbarlari , kolxoz va sovhozlarning ko’plab raislari jinoiy javobgarlikka tortildi .T.Gdlyan guruhining O’zbekistondagi faoliyati davomida O’zbekiston SSR prokururasi va O’zbekiston SSR Ichki ishlar vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimlari, O’zbekiston Kompartiyasi MQ ning 4 nafar kotibi , viloyatlardagi qo’mitalarning 8 kotibi , O’zbekiston SSR Ministirlar Soveti raisi , O’zbekiston SSR Oliy Soveti prezidumi raisi , O’zbekiston paxta tozalash sanoati va boshqa bir qancha mas’ul xodimlar , umuman 62 nafar mas’ul shaxs pora olishda ayblanib,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

jinoiy-javobgarlikka tortildi . 1989-yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirilgan . 1984-1989- yillar davomida T.Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko'proq „jinoiy “ ish ko'rilib, jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar , 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo'lган . O'zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri B.Usmonovga esa 1986-yilda o'lim jazosi belgilangan

, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan. [5;265] O'zbekist onda XX asrning 80- yillari

„ paxta ishi ” , keyinchalik „ o'zbeklar ishi” degan ma'shum nom ostida tarixga kirdi . Inqiroziy xolatlarni mayjud tuzum negizida emas , balki „ yuzaga kelgan salbiy illatlarda “ deb bilgan markaz , O'zbekistonni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab olindi. 1982-yil noyabrda KPSS MQ , Bosh kotibi L.I.Brejnev vafotidan so'ng mazkur lavozimni egallagan Yu.B.Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joy joyiga qoyish siyosatida ta'qib va tazyiqqa asoslangan qattiqqo'llik yo'lining taraftori sifatida maydonga chiqdi. Markazdagi siyosiy raxbaryat mamlakatda yuzaga kelgan chuqur inqroziy holatlarning sabablari yechimini aksariyat kadrlar siyosatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar , tartib intizomning bo'shashi , mafkuraviy hushyorlikni yo'qotish bilan izohladi . Respublika ijtimoiy hayotda katta „ burilish” yasagan O'zbekiston KP MQ 1984-yil XVI plenumi ham markazning respublikadagi

„ sog'lomlashtirish ” borasida ko'rsatyotgan va belgilayotgan tadbirlarni qo'llab- quvvatladi . Mazkur plenum markazning „ O'zbekistonda turg'unlik davri illatlariga qarshi kurash “ ini qo'llab quvattlagan holda mahalliy raxbar kadrlarni turli yo'llar bilan tazyiq ko'rsatish va jazolash jarayonmlarini boshlab yubordi. 1984 – yilda O'zbekiston SSR prakurori , uning muovinlaridan uchtasi , eng katta boshqarmalarning boshliqlari lavozimlariga markazdan yuborilgan hodimlar yuborildi . Mahalliy raxbarlar „ iltimosiga binoan “ yuborilgan kadrlar noqonuniy tarzda hibsga olinganlarning manfaatlarni himoya qilishi ham qiyin edi . Aksincha ,

„desantchilar” qatag'onlik siyosatining davom etishida , respublikada

nohaqlik va

qonunbuzarlik , mansabini suiistemol qilishining avj olishida zo'rovonlik va tazyiqni kuchayishida " faol " rol oynadilar.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishguncha o'zbek xalqi juda xam og'ir qora kunlarni boshdan kechirdi .O'zbekistonda XX asrning 80-90 yillarda Sovet Ittifoqi markazi tomonidan "qayta qurish" siyosati amalga oshirildi, lekin bu siyosatning ilmiy jihatdan puxta asoslanmagan "konsepsiysi" mag'lubiyatga uchradi . Sovet tuzimiga nisbatan ko'tarilgan qo'zg'alonlarni shavqatsizlarcha bostirdi. O'zbekistonda inson huquqlari behad toptalgan , xalqqa nisbatan taqib kuchaydi. 1989 yil may-iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro'y berdiki, u respublikada va butun mamlakatda g'oyat darajada katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi . Moskvadan jo'natilgan Ivanov va Gdlyan o'zlariga yoqmagan kadrlarni noqonuniy tarzda hibsga olgan. O'z mansabini suiste'mol qilib zo'ravonlik va tazyiqni kuchaytirdi. Mahalliy rahbar xodimlar va ziyolilar ham taqibga olindi. ,, Paxta ishi " degan nom „o'zbeklar ishi" ga aylantirildi. Respublikamizda o'sha davrdagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni chuqur tahlil qilib aholining, ayniqsa qishloq aholisining moddiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilash uchun siyosat maydoniga Islom Karimov chiqdi. O'zbekiston SSR 1990- yilning 20-iyunida suverenitet e'lon qildi, ammo 1991-yilning 31-avgustida mustaqillik e'lon qilinib, O'zbekiston Respublikasi deb qayta nomlangunicha Sovet Ittifoqi tarkibida qoldi. O'zbekiston mustaqilligi 1991-yilning 26-dekabrida Sovet Ittifoqi parchalanib ketganidan keyin tan olindi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Xoliqulov , K.G'aniyev , M.Nasrullayev O'zbekiston tarixi (Nomutaxasis yo'naliш talabalari uchun). Samarqand – 2019 . B 264-266
2. R.H.Murtazoyeva A.A.Odilov , A.A.Ermetov , K.D.Soipova O'zbekiston tarixi . „ Donishmand Ziyosi " Toshkent-2020. B 570-572.
3. Ismatillo Yuldashev Maxfiy mahkama yoxud qonunsiz qamalganlar qissasi. „ Turon Nashr " Samarqand-2021 . B 6

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4. Toshtemir Qahramonov Iblis iskanjasida 1643kun . „ Yozuvchi ” nashriyot Toshkent. B 7-12
5. International House Tashkent <http://iht.uz> → slides → historyofuzbekistan › 009...
6. O.Solimov, Q.Usmonov , D.G'aniyev Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili (O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazaryasi va amalyot kursi bo'yicha o'quv qo'llanma” . „ Sharq Nashriyot – matbaa konserni Toshkent-1999. B 9- 12